



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

### RESPUBLIKAMIZDA BANK-MOLIYA TIZIMINI ISLOH QILISH

**Jusupova Anjim Tansiqbaevna**

*Nukus innovatsion institute*

*"Iqtisodiyot va biznes" kafedrası assistenti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish haqida, iqtisodiyotimiz tarmoqlari va sohalarida olib borilayotgan islohotlar sharoitida amaldagi xizmatlar sifatini oshirish haqida, yangi bank mahsulot va xizmatlarining yig'indisi sifatida mijozlarga foyda olishda yordam beradigan yangiliklar kiritishni joriy qilish orqali resurslar salohiyatini shakllantirish haqida so`z boradi.*

**Kalit so`zlar:** *bank-moliya tizimi, tadbirkorlik, islohotlar, samaradorlik, taraqqiyot strategiyasi, mijoz*

"Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlandi. Ushbu taraqqiyot strategiyasida mamlakatdagi davlatning iqtisodiy xavfsizligiga katta e'tibor qaratilgandir.

Ta'kidlash lozimki, respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko'lamini kengaytirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari spektorlarini ko'paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi.

Shu bilan birga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik subyektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo'jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

"Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning barqarorligini saqlash, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish" 1 bugungi kundagi maqsadimizdir. Bugungi kunda



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiyotdagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish uchun muhim iqtisodiy ahamiyatga egadir. Ayniqsa, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha iqtisodiyotimiz tarmoqlari va sohalarida olib borilayotgan islohotlar sharoitida amaldagi xizmatlar sifatini oshirish, yangiliklarni amaliyotga tadbiq etishni faollashtirishni va bunda xorijiy banklar tajribasini keng qo'llash talab qilinadi. Iqtisodiyotda zaruriy tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirmasdan, bank mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiyalamasdan va texnologik jihatdan yangilamasdan turib jahon moliya bozorida mustahkam o'ringa ega bo'lish mushkul. Innovatsion bank xizmatlarini amaliyotga tadbiq yetish, kuchli raqobat mavjud bo'lgan hozirgi sharoitda, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri yangi bank xizmatlarini va mahsulotlarini ishlab chiqishda yangicha tamoyil va mexanizmlarini amalda joriy etish dolzarb masaladir

Bank sohasi bu iqtisodiyotning yangi texnologiyalar juda keng qo'llanadigan sohasidan biri hisoblanadi. Oxirgi vaqtlarda yangi kompyuter texnologiyalari, kredit kartalari va pul-moliya bozorida muhim innovatsiyalarni joriy etish davri bo'ldi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, banklar ijtimoiy tarmoqlarga, mobil internetga va hattoki, onlayn o'yinlar e'tiborini tortadigan yangi reklama kanallarini juda faollik bilan rivojlantirmoqda.

Bank innovatsiyalari - yangi bank mahsulot va xizmatlarining yig'indisi sifatida mijozlarga foyda olishda yordam beradigan yangiliklar kiritishni joriy qilish orqali resurslar salohiyatini shakllantirish va joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish jarayonida qo'shimcha daromad olishga qaratilgan yangi texnologiyalar sohasida bank faoliyatining maqsadi va natijasi haqida sintetik tushunchadir.

Aksariyat global banklar raqamli yoki mobil shaklga o'tishni qo'llab - quvvatlamoqda. Bugungi kunga kelib, banklar mijozlarining salmoqli qismini online dunyoga to'laqonli moslashgan va busiz hayotini tasavvur qilolmaydigan yosh avlod tashkil etadi. Shunisi qiziqki, dunyo aholisining 90 foizini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etishini hisobga olsak, bank xizmatlarini raqamlashtirish banklar uchun hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

### **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2005-yil 15-apreldagi PQ-56-son qarorining 4-bandi.



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 1996 yil 25 aprel.
3. Abdullaeva SH.Z. Bank ishi. Darslik. - T.: TMI, 2003.